

## BARQAROR RIVOJLANISHNING INSTITUTSIONAL ASOSI SIFATIDA GENDER TENGLIGINING O'RNINI VA ISTIQBOLLARI

Narzullayeva Gulzira Xayrullo qizi

Perfect-University Gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Tel: +99-893-272-71-81

E-mail: mirigulgulzira@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18677762>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada gender tengligining jamiyat barqaror rivojlanishidagi o'rnini institutsional tahlil qilinadi. Gender tengligi shunchaki ijtimoiy adolat mezonini emas, balki iqtisodiy o'sish va demokratik islohotlarning drayveri sifatida asosidir. Shuningdek, O'zbekistondagi sohadagi istiqbolli rejalar va xalqaro tajriba ushbu maqolada qiyoslanadi.

**Kalit so'zlar:** gender tengligi, barqaror rivojlanish, institutsional yondashuv, inson kapitali, ijtimoiy transformatsiya, inklyuziv iqtisodiyot.

### Аннотация

В данной статье анализируется институциональная роль гендерного равенства в устойчивом развитии общества. Гендерное равенство является не только критерием социальной справедливости, но и основой экономического роста и демократических реформ. Также в статье проводится сравнение перспективных планов в этой области в Узбекистане и международного опыта.

**Ключевые слова:** гендерное равенство, устойчивое развитие, институциональный подход, человеческий капитал, социальные преобразования, инклюзивная экономика.

### Abstract

This article analyzes the institutional role of gender equality in the sustainable development of society. Gender equality is not only a criterion of social justice, but also a basis for economic growth and democratic reforms. Also, this article compares promising plans in this area in Uzbekistan and international experience.

**Keywords:** gender equality, sustainable development, institutional approach, human capital, social transformation, inclusive economy.

Bugungi globallashuv sharoitida gender tengligi masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Gender tengligi erkaklar va ayollarning huquq, imkoniyat va majburiyatlarda tengligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy tamoyildir. Ushbu tushuncha nafaqat ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish, ta'lim sifati va ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Gender tengligi biologik farqlardan qat'i nazar, shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida teng ishtirok etishini anglatadi. Bu tushuncha ayollar va erkaklar uchun bir xil sharoit yaratish, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik hamda gender stereotiplarini bartaraf etishni o'z ichiga oladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ravishda ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni[1]. Bunga ko'ra gender tengligi davlatimizda dolzarb masala bo'lib, shu asosida bir qator maqsadlar qo'yilib,

shu asosida vazifalar belgilab berildi. "12-modda. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tenglikka erishishga, oilani mustahkamlashga, onalik, otalik hamda bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishishga, davlat xizmatining rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog'ida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipini ta'minlashga ko'maklashadi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi. Gender tenglikni, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi ishlarning joriy holatini o'rganish, mavjud muammolarni tanqidiy jihatdan tahlil qilish va bartaraf etish choralari ko'radi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini erkaklar bilan teng ravishda oshirish choralari ko'radi. Davlat organlarining jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtiradi. Jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilganligi munosabati bilan og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus muassasalarni tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi. Gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha vaqtinchalik maxsus choralar ko'rish va ularni bekor qilish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalariga doir murojaatlarini qabul qilishni, ko'rib chiqishni va tahlil qilishni amalga oshiradi hamda buzilgan huquqlarni tiklash yuzasidan choralar ko'radi. Genderga oid auditni o'tkazish rejasini tasdiqlaydi va genderga oid auditni o'tkazish uslubiyatini belgilaydi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash va bu sohadagi xalqaro standartlarga rioya etish borasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi". Gender tengligi gender adolati tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash jamiyatning kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim omildir. Qizlar va o'g'il bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari teng bo'lsa, ularning intellektual salohiyati to'liq namoyon bo'ladi. Gender tengligi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradi. Mehnat bozorida gender tengligini ta'minlash iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ayollarning yetakchilik lavozimlarida faol ishtirok etishi boshqaruv sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, teng mehnat uchun teng haq to'lash tamoyili ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi. Gender tengligi mavjud bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi va barqaror rivojlanish ta'minlanadi. Shunga qaramay, ko'plab jamiyatlarda gender tengligini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammolar mavjud. Jumladan, an'anaviy qarashlar, gender stereotiplari, ta'lim va mehnat sohasidagi yashirin diskriminatsiya shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, gender tengligini ta'minlashda huquqiy asoslarning mustahkamligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya) da gender tengligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan bo'lib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu mamlakatlarda teng mehnat uchun teng haq to'lash, ota-onalik ta'tilining gender jihatdan muvozanatli taqsimlanishi hamda siyosiy vakillik bo'yicha kvotalar qonunchilik orqali aniq belgilangan. [2]

Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa gender tengligi masalasi umumiy huquqiy standartlar asosida tartibga solinadi. Xususan, diskriminatsiyaga qarshi qat'iy mexanizmlar, sud himoyasining samarali ishlashi va gender ekspertizasi institutining joriy etilishi huquqiy kafolatlarni mustahkamlaydi. Bu holat gender tengligini faqat deklarativ darajada emas, balki amaliy mexanizmlar orqali ta'minlash imkonini beradi. [3]

O'zbekiston tajribasida ham so'nggi yillarda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy baza shakllantirilmoqda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'lib, xalqaro standartlarga moslashish jarayonini boshlab berdi. Biroq rivojlangan davlatlar tajribasi bilan qiyoslaganda, huquqiy normalarning ijrosini nazorat qilish va monitoring mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda. [4]

Xulosa qilib aytganda, gender tengligi zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy institutsional omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, gender tengligi faqatgina ijtimoiy adolat yoki inson huquqlarini himoya qilish doirasidagi masala bo'lib qolmay, balki iqtisodiy o'sish, inson kapitalidan samarali foydalanish, demokratik boshqaruv va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim strategik resursi sifatida namoyon bo'ladi.

### References:

1. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.12.2022 yildagi O'RQ-809-son
2. European Union. Directive 2006/54/EC of the European Parliament and of the Council on equal opportunities and equal treatment of men and women in employment and occupation. – Brussels, 2006.
3. International Labour Organization (ILO). Global Wage Report: Gender Pay Gap. – Geneva, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2022.